



VOCABULARY TEACHING METHODOLOGY

Narbayeva Xosiyat

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz, Faculty of
Turkic Languages, 2nd level student of Uzbek language education in
foreign language groups

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11118325>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2024

Accepted: 06th May 2024

Online: 07th May 2024

KEYWORDS

Vocabulary, morphology,
interactive method, "Fan"
strategy, "Table" graphic
organizer, methodology.

ABSTRACT

The use of interactive methods in the process of teaching vocabulary increases the effectiveness of the lesson. The use of the "Fan" and "Table" methods in teaching the morphology of the Uzbek language increases the students' activity during the lesson, and increases their ability to think and summarize information.

SO'Z TURKUMLARINI O'QITISH METODIKASI

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli
guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11118325>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2024

Accepted: 06th May 2024

Online: 07th May 2024

KEYWORDS

So'z turkumlari, morfologiya,
interfaol metod, "Yelpig'ich"
strategiyasi, "Jadval" grafik
organayzeri, metodika.

ABSTRACT

So'z turkumlarini o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. O'zbek tili morfologiyasini o'qitishda "Yelpig'ich" va "Jadval" metodlaridan foydalanish dars davomida o'quvchilarni faolligini oshirish bilan birgalikda ularning fikrlash, ma'lumotlarni ixchamlashtirish qobiliyatini oshiradi.

Tilimizdagi barcha so'zlar sof turkiy tili so'zlari emas, uning tarkibida arab, fors, tojik, rus va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham bor. Dunyodagi barcha tillar lug'at boyiligida ham boshqa tillarda o'zlashgan so'zlar bo'ladi. ¹O'zbek xalqi, ma'lumki, eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan, demak, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo'shnichilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan, bunda, ayniqsa, turkiy-arab, o'zbek-arab, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-qirg'iz va o'zbek-turkman bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo'lgan. Shunday so'zlar borki, ular o'z tilida qanday bo'lsa shunday

¹ H. Jamolxonov Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – "Talqin" - 2005



qo'llaniladi. Qardosh xalqlar morfoloiyasi o'zbek tili morfologiyasiga o'xshash, chunki ularning barchasi bir asosdan shakllangan tillar hisoblanadi.

So'z turkumlari Gramatikaning morfologiya bo'limida o'rganiladi. Hozirgi kunda maktab darsliklari o'zgartirildi. Asosan, darslik o'quvchilarning fikr yuritishi uchun barcha mashqlar moslashtirilgan. Bugungi kunda jahon davlatlaridagi barcha darslar o'quvchilarning tafakkur qilishi asosida tashkil qilinadi. Bugungi kunda texnika-texnologiya rivojlanishi yosh avlodning fikrlash qobiliyatiga ham ta'sir qilmoqda. Avallari biror ma'lumotni toppish uchun qancha narsa o'qish kerak edi, hozir esa qidiruv tugmasi orqali barchasiga yechim topilyapti. Afsuski, bolalarning ko'pchilik qismi telefon yoki turli xil o'yinlarga qaram bo'lib qolyapti. Bu esa darsni tashkil qilishni o'quvchilarni qiziqtira oladigan darajada tashkil qilishni talab qiladi. O'zbek tili nihoyatda boy til hisoblanadi. Buni Alisher Navoiy bobomiz o'zining shoh asari bo'lmish "Xamsa" asarini turkiy ya'ni o'zbek tilida yozishi bilan isbotlab bergan. O'zbek tili so'z turkumlari uchta katta guruhga ajratiladi. Birinchisi mustaqil so'z turkumlari bo'lib, u o'z ichiga ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l so'z turkumlarini oladi. Ikkinchi so'z turkumlari yordamchi so'z turkumlari bo'lib, u o'z ichiga ko'makchi, yuklama, bog'lovchilarni oladi. Uchinchi so'z turkumlari alohida olingan so'zlar bo'lib, u o'z ichiga taqlid so'zlar, modal so'zlar, undov so'zlarni oladi. ²So'z turkumi soni va tarkibini aniqlashda dunyo tilshunosligida bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligida ham, so'zlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatini inobatga olish keng tarqalgan. Biroq amaliyotda so'z turkumlarini ajratishda, asosan, ularning semantik xossasiga tayanish urf bo'lgan. Ayrim tilshunoslar tomonidan tasnifda ma'noviy belgi bosh va yagona asos sifatida qaraladi. Ba'zilar esa mezon sifatida mazkur uch belgini tan olgan holda so'zlarni ma'noviy va sintaktik belgilari asosidagina guruhlashadi. O'zbek tili grammatikasining ko'p jihatlarini rus tilshunosligiga o'xshaydi. Ammo talaygina farqli tomonlari ham bor. Tilimiz sinonimlarga juda boy. Izohli lug'atda bir so'zning yigirmaga yaqin sinonimlari berilganlarini ham kuzatishimiz mumkin. Alisher Navoiy ham "kulmoq" leksemasining bir qancha sinonimlarini keltirib o'tgan. So'zlarni tasnif qilishda olimlar ikki narsaga tayanishgan. Bular birinchisi so'zlarning ma'no anglatishi bo'lsa, ikkinchisi boshqa so'zlar bilan bog'lana olish qobiliyati hisoblanadi. ³Adabiyotlarda leksik birliklar va grammatik birliklar birgalikda **so'z** termini bilan nomlanib, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish so'zlar mustaqil so'z turkumlari deb, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama yordamchilar deb guruhlanadi, modal so'z, undov, taqlid so'z alohida-alohida turkumlar deb ajratiladi.

So'z turkumlari mavzusini o'qitishda "Yelpig'ich" strategiyasidan foydalanish mumkin. Bu texnologiyada mavzuning har bir bamlari va bo'limlari bo'yicha ma'lumot beriladi. Bu metodda har bir mavzu alohida-alohida tushintiriladi va muhokama qilinadi. Dars davomida o'quvchilar bilan muloqotda bo'lib boriladi. Metodni qo'llashda o'quvchilarni fikrlashga chorlaydigan matn, video yoki audiolardan foydalanish tavsiya qilinadi. O'quvchilar faqatgina kitobda berilgan matn ichidan emas, balki audio va videolardan ya'ni ularning matnlaridan

² R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abduzalova Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.

³ Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006



soʻz turkumlarini topadilar. Bu orqali bolalardagi tinglash va idrok qilish qobiliyatini shu bilan birgalikda soʻzlarning morfologik xususiyatlariga ham eʼtibor bilan yondashadilar. Metodni qoʻllash jarayoni uch bosqichdan iborat. Bulardan birinchisi oʻquvchilarni bilim olishga yoʻnaltirish va ularni faollashtirish hisoblanadi. Ikkinchisi esa mavzuga oid boʻlgan bilimlarni anglash va tushinish. Uchinchi bosqich esa oʻzlashtirilgan bilimlarni tartibga solish hisoblanadi.

Soʻz turkumlarini oʻqitish jarayonida “Jadval” grafik organayzeridan foydalanish ham mumkin. Bu metod oʻquvchilarning oʻrganilgan mavzu asosida oʻzlari tushingan va bilib olgan bilimlarini aks ettiradilar. Metodni qoʻllash jarayonida oʻquvchilar oʻrganilgan mavzu mohiyatini, uning asosiy tushunchalarini, muhim maʼlumotlarini ogʻzaki yoki yozma shaklda emas jadval shaklida bayon qilinadi. Har bir mavzu yaʼni soʻz turkumlari haqida tayanch soʻzlar yozishadi. Bu metodni qoʻllash har bir oʻquvchida muayyan bir maʼlumotni umumlashtirish yaʼni qisqa tarzda tushintirish koʻnikmasini shakllantiradi.

⁴Zamonaviy sharoitda taʼlim samaradorligini oshirishning eng maqbul yoʻli – bu mashgʻulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvala, ijtimoiy subʼektlarning suxbat (dialog), oʻzaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

Dars davomida interfaol metodlarda asosiy eʼtibor oʻquvchilarning mavzuni oʻzlashtirishi va shu mavzu asosida oʻzlari mustaqil fikrlar yuritishi ularni bayon qilishi va boshqalarga yetkazib berishiga qaratilishi lozim. Bilimlarni boshqalarga yetkazib berish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Oʻquvchilarning bunday qobiliyatini rivojlantirish oʻqituvchining zimmaiga yuklatiladi. Oʻqituvchi darsni toʻgʻri tashkil qilib, metoddan toʻgʻri foydalansa maqsadga muvofiq boʻladi.

References:

1. H. Jamolxonov Hozirgi oʻzbek adabiy tili Toshkent – “Talqin” - 2005
2. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili – Toshkent: Universitet, 2006
3. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abduzalova Hozirgi oʻzbek adabiy tili Toshkent – 2009.
4. Roʻziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qoʻllanilishi. – Toshkent 2013.

⁴ Roʻziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qoʻllanilishi. – Toshkent 2013.